



TIJORAT BANKLARINING SAMARALI INVESTITSION FAOLIYATI

Sulxonberdiyeva Shodiya Shuxrat qizi

Toshkent moliya instituti Bank ishi fakulteti 2-kurs BIA-75 guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolamizda tijorat banklarining investitsion faoliyati qandayligi, uni rivojlantirish uchun qanday ishlar amalga oshirilayotgani hamda xorijiy banklar tajribasiga ko'ra qanday samarali investitsion faoliyat amalga oshirilganini ko'rishimiz mumkin.*

Kalit so'zlar: *tijorat banklari, investitsiyalar, bank tizimi, bank krediti, inflatsiya, investitsiya krediti.*

Hozirgi kunda tijorat banklarimizda juda katta o'zgarishlar bo'lib o'tmoqda. Ayni damda iqtisodiyot beqaror bo'lgan bir sharoitda banklarning raqobatbardoshligini oshirish uni barqaror rivojlantirish iqtisodiyotga muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy iqtisodiyot rivojlanayotgan bir paytda banklar ham shu bilan bir qatorda rivojlanib kelmoqda. Ayniqsa, tijorat banklarning samarali investitsion faoliyati banklarni yanada rivojlanishiga olib kelmoqda. O'zi banklarning investitsion faoliyati nima? Banklarning investitsiya faoliyati - bu bank investor sifatida daromad olish maqsadida moliyaviy aktivlarni sotib olishi, real aktivlarni yaratishi va tashkil qilishi uchun mablag'larni joylashtirishi bilan bog'liq faoliyatidir. Banklarning investitsiya faoliyatini boshqa investorlar faoliyatidan farqli tomoni shundaki, ular investitsiyani jalb qilingan mablag'lar evaziga amalga oshiradilar. Shuning uchun ham bank bir tomondan investor sifatida bozorda paydo bo'lsa, boshqa tomondan esa u qarzdordir. Ushbu holat banklar uchun likvidlikni muhim masala qilib qo'yadi, ular aktivlar va passivlarining muddati, hajmi va foiz stavkalari bo'yicha mutanosib boshqarishni taqozo etadi. Hozirgi kunda Tijorat banklarni rivojlantirish uchun ko'plab ishlar olib borilmoqda. Ulardan biri, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.05.2020 yildagi "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF5992-son farmoni bilan "Tijorat banklarida bank xizmatlarini ko'rsatish sifatini baholash uslubiyoti" ni kiritish taklif etilgan.

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarini samarali investitsion faoliyatini baholash bo'yicha aniq metodologik yondashuvlar mavjud emas. Shunga ko'ra tijorat banklari investitsion faoliyatini baholashga qaratilgan metodologik asoslarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Raqobat rivojlangani sari tijorat banklarining investitsion faoliyatga bo'lgan talab yuqorilashadi va tanlangan bozorlardagi yetakchilik, kelajakdagi bank muvaffaqiyati uchun birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Bilamizki, hozirgi kunda iqtisodiyotimiz globallashtirib bormoqda. Globallashtirish sharoitida tijorat banklari investitsion faolligini oshirish milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Shu tufayli ilmiy maqolada tijorat banklari investitsion siyosatini shakllantirish va moliya-sanoat guruhlarida ular tomonidan investitsion faoliyatni olib borish jarayonlarini tadqiq etish, tadqiqot natijalarini tizimlashtirish asosida ilmiy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishda induksiya va deduksiya, tizimli va qiyosiy tahlil, grafik tasvirlash va iqtisodiy-statistik usullardan keng foydalanildi.



Hozirgi kunda qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritayotgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishayotgani aksiomaga aylanib ulgurdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi" . Ushbu yonalish bo'yicha tijorat banklar qanday ishlar amalga oshirmoqda? yurtimiz tarixida ilk marta O'zbekistonning suveren davlat obligatsiyalarini xalqaro moliya bozorlariga chiqarildi. Bu borada "J.P.Morgan", "Citibank", "Deutsche Bank" kabi yetakchi xalqaro investitsiya banklari bilan hamkorlik olib borilyapti. Oxirgi yillarda bank va moliya tizimida jadal davom ettirilayotgan jadal islohotlar avvalo sohaga zamonaviy bozor mexanizmlarini keng joriy etishda namoyon bo'lyapti. O'z navbatida uzoq yillar davomida banklar kapitalining asosiy qismi davlatga tegishli bo'lib kelgandi. Bu esa bank sektorida sog'lom raqobatga to'siq bo'lib kelar, xizmat ko'rsatish sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelayotgan edi. Binobarin, so'nggi yillarda banklar faoliyati, ayniqsa, ularning investitsion jarayonlardagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan muhim institutsional o'zgarishlar amalga oshirilyapti. Davlat rahbarining topshirig'i bilan hukumat va Markaziy bank xalqaro moliya institutlari ko'magida bank-moliya tizimini rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatli strategiya ishlab chiqilmoqda. Zero, shu asosda bank tizimiga xususiy va xorijiy kapital kirib keladi. Pirovardida davlat banklari ulushi bosqichma-bosqich kamayib boradi va sohada raqobat muhitini yaxshilash, tijorat banklari faoliyatini, kreditlash sifati va madaniyatini, ayniqsa, ularning investitsion aktivligini har tomonlama oshirishga xizmat qiladi.



| Tijorat banklari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida 2024-yil 1-yanvar holatiga (banklar kesimida) ma'lumot | | | | | | | | | |
|---|-------------------------------|----------------|-------------------|----------------|-------------------|---------------|-------------------|----------------|-------------------|
| № | Bank nomi | Aktiv | | Kredit | | Kapital | | Depozit | |
| | | summa | ulushi, foizda | summa | ulushi, foizda | summa | ulushi, foizda | summa | ulushi, foizda |
| Jami | | 652 157 | 100% | 471 406 | 100% | 97 079 | 100% | 241 687 | 100% |
| Davlat ulushi mavjud banklar | | 441 777 | 68% | 333 298 | 71% | 63 239 | 65% | 124 358 | 51% |
| 1 | O'zmilliybank | 127 503 | 19,6% | 99 423 | 21,1% | 17 849 | 18,4% | 32 920 | 13,6% |
| 2 | O'zsanostqurilish bank | 74 634 | 11,4% | 57 124 | 12,1% | 8 728 | 9,0% | 13 799 | 5,7% |
| 3 | Azrobank | 66 700 | 10,2% | 54 483 | 11,6% | 12 297 | 12,7% | 15 389 | 6,4% |
| 4 | Asaka bank | 58 014 | 8,9% | 39 213 | 8,3% | 6 668 | 6,9% | 15 485 | 6,4% |
| 5 | Xalq banki | 36 603 | 5,6% | 24 549 | 5,2% | 5 883 | 6,1% | 17 044 | 7,1% |
| 6 | Biznesni rivojlantirish banki | 27 063 | 4,1% | 21 801 | 4,6% | 3 180 | 3,3% | 9 419 | 3,9% |
| 7 | Mikrokreditbank | 19 062 | 2,9% | 14 437 | 3,1% | 3 934 | 4,1% | 6 361 | 2,6% |
| 8 | Aloqa bank | 16 045 | 2,5% | 10 294 | 2,2% | 2 643 | 2,7% | 9 227 | 3,8% |
| 9 | Turon bank | 15 939 | 2,4% | 11 894 | 2,5% | 1 897 | 2,0% | 4 662 | 1,9% |
| 10 | Poytaxt bank | 215 | 0,0% | 79 | 0,0% | 160 | 0,2% | 53 | 0,0% |
| Boshqa banklar | | 210 380 | 32% | 138 107 | 29% | 33 840 | 35% | 117 329 | 49% |
| 11 | Ipoteka-bank | 47 638 | 7,3% | 37 264 | 7,9% | 7 579 | 7,8% | 17 773 | 7,4% |
| 12 | Kapital bank | 41 866 | 6,4% | 26 586 | 5,6% | 4 226 | 4,4% | 30 102 | 12,5% |
| 13 | Hankorbank | 20 980 | 3,2% | 15 854 | 3,4% | 3 758 | 3,9% | 7 971 | 3,3% |
| 14 | Ipak vo'li bank | 16 866 | 2,6% | 11 701 | 2,5% | 2 752 | 2,8% | 7 991 | 3,3% |
| 15 | Orient Finance bank | 13 126 | 2,0% | 8 448 | 1,8% | 2 248 | 2,3% | 8 869 | 3,7% |
| 16 | Invest Finance bank | 9 571 | 1,5% | 6 431 | 1,4% | 1 180 | 1,2% | 7 406 | 3,1% |
| 17 | Trast bank | 9 450 | 1,4% | 4 947 | 1,0% | 2 244 | 2,3% | 6 743 | 2,8% |
| 18 | KDB bank O'zbekiston | 8 845 | 1,4% | 2 651 | 0,6% | 1 311 | 1,4% | 6 240 | 2,6% |
| 19 | Asia Alliance bank | 8 029 | 1,2% | 3 712 | 0,8% | 845 | 0,9% | 6 080 | 2,5% |
| 20 | Tenge bank | 6 640 | 1,0% | 4 208 | 0,9% | 1 272 | 1,3% | 2 225 | 0,9% |
| 21 | Davr bank | 6 130 | 0,9% | 5 004 | 1,1% | 1 006 | 1,0% | 2 741 | 1,1% |
| 22 | Tibisi bank | 4 513 | 0,7% | 3 730 | 0,8% | 1 208 | 1,2% | 2 682 | 1,1% |
| 23 | Anor bank | 4 418 | 0,7% | 3 169 | 0,7% | 582 | 0,6% | 3 720 | 1,5% |
| 24 | Ziraat Bank Uzbekistan | 2 941 | 0,5% | 1 595 | 0,3% | 469 | 0,5% | 1 979 | 0,8% |
| 25 | Universal bank | 2 392 | 0,4% | 1 162 | 0,2% | 418 | 0,4% | 1 706 | 0,7% |
| 26 | Oktobank | 2 367 | 0,4% | 249 | 0,1% | 479 | 0,5% | 1 648 | 0,7% |
| 27 | Garant bank | 1 681 | 0,3% | 922 | 0,2% | 285 | 0,3% | 997 | 0,4% |
| 28 | Apeks bank | 605 | 0,1% | 29 | 0,0% | 278 | 0,3% | 185 | 0,1% |
| 29 | Eron Soderot bankining ShB | 514 | 0,1% | 22 | 0,0% | 459 | 0,5% | 43 | 0,0% |
| 30 | Uzum bank | 472 | 0,1% | 50 | 0,0% | 265 | 0,3% | 10 | 0,0% |
| 31 | Hayot bank | 411 | 0,1% | 30 | 0,0% | 182 | 0,2% | 148 | 0,1% |
| 32 | Madad invest bank | 336 | 0,1% | 292 | 0,1% | 240 | 0,2% | 50 | 0,0% |
| 33 | Smart bank | 213 | 0,0% | 0,3 | 0,0% | 203 | 0,2% | 10 | 0,0% |
| 34 | Yangi bank | 200 | 0,0% | 46 | 0,0% | 197 | 0,2% | 3 | 0,0% |
| 35 | AVO bank | 177 | 0,0% | 7 | 0,0% | 153 | 0,2% | 7 | 0,0% |

Tijorat banklarida investitsion faoliyati yildan yilga rivojlanganini ushbu jadval orqali ko'rish mumkin. Investitsion faoliyatga ajratilgan kreditlar hajmi yildan yilga oshib bormoqda. Joriy yildagi investitsiyaviy kreditlar hajmi 2022- yilda 58,8 trln bo'lsa, hozirda bunda bir necha barobar o'sganini ko'rishimiz mumkin. Bu kreditlar korxonalar xususiy sektorlarni ahvolini yaxshilash ularni faoliyatini samaradorligini oshirish uchun qaratilgan say harakatlardir. Bularni barchasi bilamizki, xususiy sektorlarni faoliyatini rag'batlantiradi. Ushbu kreditlar nima maqsadda beriladi deysizmi? Ushbu kredit texnika texnologiyalarni rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish, raqobatbardoshlikka chidamli mahsulot yaratish uchun tashkil etilgan. Hamda hozirda bankning investitsion salohiyatida samarasini ko'rsatmoqda.



Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, investitsion loyihani amalga oshirish jarayonida turli omillarning ta'siri natijasida muayyan darajada moliyaviy risklar yuzaga kelishi va loyihaning samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu faoliyatni yaxshilash uchun riskni boshqarish, tog'ri moliyaviy qarorlar qabul qilish, tavakkalchilikni pasaytirish ya'ni ko'proq axborotga ega bo'lish va boshqarish kabi ishlarni talab qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.05.2020 yildagi "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF5992-son farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2018-yil 28-dekabr.<https://president.uz/uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020-yil 29-dekabr.<https://president.uz/uz>
4. Suyarova Zebiniso Ulug'bek qizi Tijorat banklarining samarali investitsion faoliyati. Spanish international scientific online conference
5. www.cbu.uz
6. www.stat.uz